www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

LMS TIZIMLARI VA ULARNING O'QUV JARAYONIDA QO'LLANILISHI

Zulxumor Axmedova

OSIYO XALQARO UNIVERSITETI

Annotatsiya. Hammamizga ma`lumki, har bir universitet yoki ta`lim muassasi o'z ta`lim jarayonini boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalardan kelib chiqqan holda, o'zining virtual axborot ta`lim muhitini yaratishga harakat qiladi. Hozirgi vaqtga kelib, virtual axborot ta`lim muhitini yaratishning hojati qolmagan, chunki Web muhitiga moslashgan har hil turdagi dasturiy majmualar jonkuyar dasturchi va ta`lim sohasida ishlab kelayotgan xodimlarning hamkorlikda ishlashlari shuningdek, ta`limga yo'naltirilgan fondlar tomonidan qo'llab quvvatlanishi natijasida, erkin va ochiq kodli dasturiy ta`minotlar yaratilgan[1].

**Kalit so`zlar:** dasturiy majmualar, Moodle, maosafaviy ta`lim, virtual ta`lim jarayonini.

Kirish. Masofaviy ta`lim jarayonini amalga oshirishda qo'yida ko'rsatilgan bosqichlar asosida amalga oshirish mumkin: 1-bosqich: Tahlil; 2-bosqich: Loyihalashtirish;3-bosqich: Joriy qilish; 4-bosqich: O'quv kontentlarini yaratish; 5-bosqich: Ishga tushirish; 6-bosqich: Rivojlantirish. Elektron ta`limi – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi ta`limning turli ko'rinishlarini anglatuvchi keng tushunchadir. Elektron ta`limni tashkillashtirishning ko'pgina manbalari orasidan quyidagilarni ko'rsatish mumkin: Mualliflik dasturiy mahsulotlari (Authoring tools); Virtual ta`lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar LMS (Learning Management Systems); Ichki kontentni boshqaruv tizimlari CMS (Content Management Systems).

Quyida maosafaviy ta`lim jarayonini tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi erkin va ochiq kodli LMS dasturiy majmualarning nomlari va ularning asosiy imkoniyatlari bo'yicha ma`lumotlarni bayon qilamiz. Atutor – Ochiq kodli ta`lim jarayonini boshqaruvchi LMS tizimi hisoblanadi. Tizimda mavjud o'qitish modullari: Forums, Materials, Messenger,Chat,Exercises, Group work, Student tracking va boshqa modullari mavjud. Tizim bir nechta standartlarni qo'llab quvvatlaganligi sababli, internet orqali jismoniy nuqsonga ega bo'lgan o'quvchi-talabalar tizim orqali o'quv resurslardan foydalanishlari mumkin. Xususan ko'zi ojiz talabalar maxsus veb ilovalar orqali tizimga bog'langan holda o'quv kontentdagi so'zlarni audio formatda utkazgan holda tinglashi mumkin. Moodle –Web muhitida o'qitish va on-line rejimdagi darslarni tashkil qiluvchi kuchli pedagogik dasturiy majmua hisoblanadi. Tizimda mavjud o'qitish modullari: Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work, Student tracking va ancha ko'p bo'lgan boshqa modullari mavjud. Boshqa LMS lar singari IMS, SCORM va boshqa standartlarni qo'llab quvvatlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshqa LMS tizimlarga qaraganda eng ko'p qo'shimcha plagin va modullari mavjud bo'lgan dasturiy majmua aynan, Moodle dasturiy majmuasi hisoblanadi [2].

ADABIYOTLAR

1. *Sariyev R.B.,* Integrative essence of technologies innovative educational process, International Engineering Journal For Research & Development, 8/2020.

2. *Содикова Ф.С., Сариев Р.Б.,* Обучение с Moodle в высшем образовании, Молодой ученый,19/ 2019.